

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARS SAMARODIRLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PIRLS BAHOLASH DASTURI.**Olimova Muyassar Jumaniyazovna***Xorazm viloyati Shovot tumani 43-maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi***Bekmetova Mehribon Sadullayevna***Xorazm viloyati Shovot tumani 43-maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi***Adamova Raxila Ilhomovna***Xorazm viloyati Shovot tumani 43-maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annontatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim dars samarodirligini oshirishda zamonaviy pirls baholash dasturi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar; *Boshlang'ich ta'lim, samaradorlik, interfaol, metod, zamonaviy, PIRLS.*

Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak deb ta'kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o'z nutqlarida. Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm- fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishiga zamin yarata olmaymiz.

O'zbekiston PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etadi. Bu haqda «Xabar.uz»ga Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining matbuot xizmati ma'lum qildi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev hamda Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA — International Association for the Evaluation of Educational Achievement)ning Amsterdamdagi direktori Andrea Netton o'rtasida O'zbekistonning PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan 25-yanvar kuni ilk rasmiy uchrashuv tashkil qilindi. Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlar, jumladan, OECD

tashkiloti bilan PISA-2021 xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi.

Maktabdagi o'quv jarayoning sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirishda o'quvchilardan mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlariga juda katta boylik to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar o'qitilayotgan fanning xarakteri bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokozalar hisobga olinadi. Burhoniddin Zarkujiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql - faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak. Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda ya'nada boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir.

O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniqlab belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi. Umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va faollashtirishga bog'liq bo'ladi. Har bir darsda o'rganiladigan mavzuning mazmunini e'tiborga olgan holda kichik guruhlarda ishlash, didaktik o'yinlar, "Aqliy hujum", o'z-o'zini baholash kabilardan foydalaniladi. Bunday usullarda ilg'or pedagogik texnologiyaning didaktik o'yinli texnologiyalari didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Bunda bilim olish o'yin bilan uyg'unlashtiriladi.

Ishtirokchilarda o'z bilimi, kuchi va faoliyatiga ishonch paydo bo'ladi;

O'quvchilar o'rtasida ijodiy va mustaqil muhit tarkib topadi;

Musobaqa, hamkorlik, ijobiy raqobat, o'zaro yordam vaziyatlari vujudga keladi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni erkin fikrlay olish, bemalol mulohaza, o'z kuchiga ishonch, o'zaro hurmat, hamkorlik mavzularni mustaqil o'zlashtirishga qiziqish, yangiliklarga intilish, o'rganganlarini uzoq vaqt esda saqlab qolish va amalda qo'llash, xushmuomalalik bilan murojaat etish kabi ijobiy xislatlarni oshiradi. Darsda pedagoglar uchun vaqtdan unumli foydalanishda, darsni qiziqarli va

mazmunli tashkil etishda, noyob fikrlaydigan o'quvchilarni aniqlashda, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik, sinfdagi barcha o'quvchilarni faollashtirish, o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini o'stirish va tezkorlik bilan baholay olish kabilarda katta yordam beradi.

Zamonaviy darslar tashkil qilish jarayonida barcha fan o'qituvchilari borgan sari interfaol usullardan kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash borasida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni himoya qilish, munozara, sog'lom mulohaza, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Zamonaviy dars tashkil etishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning "Kaskad" usulida o'qitishda o'zlashtirilgan bir qancha texnologiyalar: "Refleksiya", "Kutuvlar", "Glogingo", "Buterbrot", "Men kimman?" o'yini, "Postek" o'yini, "Fidbek", "Qo'shningiz yoqadimi?", "Barchaga konfet", "Oyga sayohat", "Koptok o'yini", "Qarsak chalish", "Bilimlar tog'i", "Orfografik estafeta" mashqi kabilar orqali tushuntirib o'taman hamda bir qanchalarini o'z darsimda qo'llanilishi haqida aytib o'taman. Mashg'ulotni boshlashdan oldin "Oltin qoidalarimiz"ni belgilab, muhrlab olamiz, chunki mashq yoki o'yin davomida qat'iy amal qilishimiz uchun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2018-yil, 9-son, 8-bet.
2. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", T.G'afforova, Toshkent-2016.
3. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2017-yil, 7-soni, 20-bet.
4. "Mahoratli pedagog" jurnali, 2019-yil, 5-son, 26-bet.